



## AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI MAXSUS OPERATSIYALAR KUCHLARI TOMONIDAN "BAGGI" YENGIL TAKTIK AVTOMOBILNI QO'LLASH TAJRIBALARI

**Raxmonberdiyev Farxodjon Akramjonovich**

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti*

*Taktika kafedrası sikl boshlig'i*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy harbiy mojarolarda AQSH maxsus operatsiyalar kuchlari bo'linmalari tomonidan keng ko'lamda qo'llanilib kelinayotgan BAGGI yengil taktik avtomobilini jangovar qo'llash tajribalarini O'zbekiston respublikasi mudofaa vazirligining jangovar bo'linmalarida jangovar vazifalarni bajarish bo'yicha bilimlarini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish maqsadida ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** "BAGGI", "Yengil taktik avtomobil".

**Аннотация:** *В данной статье освещено опыт использования сыл специальный операция Армией США легкого тактического автомобиля BAGGI и внедрение его для использования боевых задач, усовершенствовании знаний в боевых подразделениях Министерства обороны Республики Узбекистан.*

**Ключевые слова:** "BAGGI", "Легкий тактический автомобиль".

### **Yengil taktik avtomobillarini rivojlanish tendentsiyasi.**

Jangovar harakatlarni olib borish taktikalari o'zgarib borishi bu harbiy avtomobillarni ham rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan rivojlangan davlatlar o'zlarida ishlab chiqishayotgan yengil taktik avtomobillarini yangi modellari ustida ishlashni boshlab yuborishdi.

Yengil taktik avtomobillarning eng faol operatorlaridan biri AQSH Qurolli kuchlaridir. AQShda turli kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan 20 dan ortiq turdagi yengil taktik avtomobillar mavjud. Dastlab, ularning asosiy maqsadi Qo'shma Shtatlar chegaralarini qo'riqlash edi. Shuningdek, ushbu mashinalar cho'ldagi operatsiyalar uchun juda mos keladi va razvedka ishlarini olib borishga qulay.

Birinchi yengil taktik avtomobillar AQShda 1950-yillarda paydo bo'la boshlagan. Ularni ishlab chiqarish uchun odatda eski, foydalanilmagan Volkswagen qo'ng'iz mashinalari ishlatilgan. Volkswagen nomining kichraytirilgan shaklidan "qo'ng'iz"-Volkswagen bug'usi, "Baggi" - degan so'z kelib chiqqan. O'zgarishlar paytida avtoulovlardan korpus, qanotlar, eshiklar olib tashlandi va qo'llab-quvvatlovchi tuzilma sifatida yengil rama yoki shisha tolali korpus o'rnatildi va ba'zi hollarda standart Volkswagen korpusining yechib tashlangan versiyasi ham qoldi. Shassining kuchi va qo'ng'izning qobiliyati, radiatorning yo'qligi, shuningdek dvigatelning orqa joylashuvi tufayli ushbu mashhur va taniqli bugungi kungacha yo'lovchi avtomobili unga asoslangan yengil taktik avtomobillarni yaratish uchun juda mos edi.[1].



Baggi-bu yuqori qobiliyati, tezligi, kichik o'lchamlari va burilish barqarorligi bilan ajralib turadigan yengil ramkali avtomobil edi. Bunday mashinalar juda foydali bo'lib chiqdi.

Birinchi seriyali yengil taktik avtmobillar Amerika Qo'shma Shtatlari harbiylariga poyga mashinalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Kaliforniyadagi kichik Chenovth kompaniyasi tomonidan yetkazib berildi (1 rasm). Uning dizaynidagi avtomobillar mashhur "Dakar" ralli poygalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.



1-rasm. FAVBeetle bazasidagi yengil taktik avtomobil.

1980-yillarning boshlarida Kaliforniyada joylashgan ushbu kompaniya katta miqdordagi qurol va turli xil jangovar jihozlarni olib yurish paytida qum tepaliklarida osongina harakatlana oladigan tezkor harbiy yengil taktik avtomobillar yaratish bo'yicha armiya shartnomasini qo'lga kiritdi. 1982 yilda allaqachon ommaviy ishlab chiqarishga kirgan birinchi armiya yengil taktik avtomobil FAV-tezkor hujum vositasi yaratildi (1-rasm). Birinchi partiyada 120 ta yengil taktik avtomobil ishlab chiqildi, lekin aslida mashinalar 1990-yillarning boshlarida foydalanilmadi. Ular birinchi marta 1991 йил Quvaytda **Cho'l bo'roni** operatsiyasi ishlatilgan bo'lib, bu Quvaytning ozod qilingan poytaxtiga kirgan birinchi transport vositasi bo'lgan FAV avtomobillari edi.[1]. Shu bilan birga, ular umuman yo'llarda harakat qilmay balki yo'lsiz hududlarda harakatlandilar. Desert Storm operatsiyasi doirasida yengil taktik avtomobillardan nafaqat AQSH harbiylari, balki Buyuk Britaniyaning Maxsus Operatsiya Kuchlari ham foydalananglar.

Avtomobilning o'ziga xos xususiyati yuqori quvvatli po'lat quvurli konstruksiyalardan, ramka va xavfsizlik kamaridan yasalgan yengil, shuningdek, korpusning orqa qismida transmissiya va dvigatel joylashishgan. 7,62 mm va 12,7 mm pulemyotlar, granata otish moslamalari, TQBQ (ПТПК) yoki KYUZRM (ПЗПК) qurol sifatida ishlatilishi mumkin va qo'shimcha ravishda radiostansiya o'rnatilishi mumkin.

Vaqt o'tishi bilan Baggi yangi DPV — Desert Patrol transport vositasini oldi (cho'lda patrul qilish uchun transport). Avtomobil qo'ng'iz asosida qurilgan. Oldi



burama po'lat quvurli ramkaga o'rnatildi va dvigatel orqa tomonda joylashgandi. Ramkasi po'lat bilan qoplangandi. Baggini ekipaji 3 kishidan iborat edi. Ulardan ikkitasi an'anaviy ravishda oddiy mashinada bo'lgani kabi joylashgan (biri haydovchi, ikkinchisi pulemyotchi), yana bir ekipaj a'zosi quvvat bloki ustida joylashgandi. U pulemyotdan yoki granatamyotdan o'q uzishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, endidlikda cho'l yengil taktik avtomobillarini dizaynini o'zgartirishga qaratilgan tendensiya mavjud.

Wolkswagen qo'ng'izi 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab ishlab chiqarishni to'xtatganligini hisobga olgan holda, asta-sekin A shaklidagi dastalar bilan bilan almashtirilmoqda. Humvee avtomobili asosida qurilgan eng "Ilg'or" armiya yengil taktik avtomobillari LSV— Fler -yengil zarba transporti nomini oldi), bu faqat mashinalarning yaxshi tezlik xususiyatlarini o'zgartirdi (2-rasm).



**2-rasm.Humvee- Flyer.**

Ayni paytda AQSh Qurolli Kuchlari Amerika kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan 20 dan ortiq bo'lgan yengil taktik avtomobillari turlaridan foydalanib kelishmoqda. Bunday yengil taktik mashinalarning yetakchi ishlab chiqaruvchilari - bular Chenout, Jip, Tektikel Engineering va ALSV-Advanced Light Strike Vehicle (Keng yengil taktik transport vositasi) va boshqalar boshqa kompaniyalar shular jumlasidandir.[2].

Ushbu turdagi mashinaning eng ko'p tarqalganlari 30 yil oldin 4x2 g'ildirak formulasi bilan sotib olingan avtomobillaridir. Avtomobilning ixchamligi va taktik xususiyatlarini o'ziga xosligi mashinani yuqori tezlikda va barqarorlik bilan harakatlanishini ta'minlaydi.

Yengil taktik avtomobillari rivojlangan chet el armiyalarida rivojlanishi ma'lumotlari materiallari tahlili quyidagi tendensiyalarni ko'rsatdi:

yengil taktik avtomobillarga har xil turdagi qurol-aslahalar (pulemyot, avtomatik granatamyot, zenit-raketa qurilmasi, tankka qarshi raketa kompleksi va kichik xajmli artilleriya vositalari) uchun jangovar platforma sifatida o'rnatib foydalanish;



turbo havoli dizel dvigatellarni, sovutish tizimi bilan birga qo'llash;  
issiq iqlimda dvigatelni suyuqlik vositasi bilan samaraliroq, havo sovutish tizimiga nisbatan ishlashi;  
avtomobilni o'tuvchanlik jihatlarini takomillashtirish;  
kichik gabaritlar va dvigatelni tovushsiz ishlashi bilan avtomobilni niqoblanishini oshirish.

**AQSH Maxsus operatsiyalar kuchlari bo'linmalarida "BAGGI" avtomobillarini mo'ljallanishi, qo'llash usullari, vazifalari bo'yicha toifalanishi.**

Yengil taktik avtomobillar - tezkor harakatlanuvchi bo'linmalar uchun mo'ljallangan yuqori o'tuvchanlikka va zarba berish qobiliyatiga ega avtomobil bo'lib shahar, tog' va cho'l sharoitlarida qo'llanilishi mumkin. [3].

**AQSH maxsus operatsiyalar kuchlari bo'linmalarida "Baggi" avtomobillari yordamida quyidagi vazifalar bajariladi:**

jangovar harakatlar olib borish jarayonlarida aniqlangan dushman obektlariga artileriya olovini korrektirovka qilish va aviatsiya zarbalarini yo'naltirish uchun belgilangan joylarga tezkorlik bilan chiqish;

dushmanning muhim obe'ktlariga qo'qisdan xujum qilish bilan (shaxid mobillarni) izdan chiqarish;

dushman kelishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarga tezlik bilan pistirmadan zarba berish;

harakatlanish vaqtida kolonnalarni (dozorlar tarkibida) xavfsizligini ta'minlash;

razvedka qidiruv, razvedka zarba, rey-d-ishg'ol va qidiruv qutqaruv harakatlarini olib borish;

jangni bajarib bo'lganidan so'ng bir joydan ikkinchi joyga bo'linmalarni tezlik bilan ko'chirish;

jangovar harakatlar olib borish vaqtida o'q-dori va boshqa vositalarni tezkorlik bilan yetkazib berish;

jang maydonidan yaradorlarni evakuatsiya qilish (sanitar) uchun foydalanish.

**AQSH maxsus operatsiyalar kuchlari bo'linmalarining yengil taktik avtomobillar bilan ta'minlanishi quyidagi ijobiy natijalarga erishishildi:**

bo'linmalarining doimiy jangovar shayligi oshirish;

maxsus bo'linmalar manyovrchanligini oshirish;

bo'linmalar tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish mobaynida jangovar imkoniyatlarini oshirish;

bo'linmalarining sa'y-harakatlarida "Baggi" avtomobillarni qo'llagan holda asosiy yo'nalishga va hal etuvchi fursatda xavfsiz harakati va o'z vaqtida zarbalar hamda o't ochishni almashtirgan tarzda manyovr qilish;

qo'shinlarni jang (jangovar harakatlar) olib borish mobaynida dushman joylashgan hududlariga kutilmagan yo'nalishlardan tezkorlik bilan kirish va olovli zarbalar berish;





jang (jangovar harakatlar)ning har tomonlama ta'minotini ta'minlab berish kiradi.[3].

### **AQSH maxsus operatsiyalar kuchlari bo'linmalarida "Baggi" avtomobillarini qo'llash usullari, vazifalar bo'yicha toifalanishi.**

Jangovar harakatlar olib borish vaqtlarida artilleriya olovlarini korrektirovka qilish va aviatsiya zarbalarini yo'naltirish -maxsus va razvedka bo'linmalari tarkibidagi artilleriya olovi korrektirovkachisi va aviatsiyani yo'naltiruvchi mutaxassislarini "Baggi" avtomobillarida dushmanning (artilleriya orudiyalari, minomyoti, tankka qarshi va zenit qurilmalari, alohida otish vositalari, tank, JTR, avtomobil, aloqa va tayanch punktlari, jangovar guruhlar va boshqalar) koordinatalarini va o'lchamlarini o'z vaqtida topish hamda aniqlash, artilleriya olovini hamda aviatsiya zarbalarini chaqirish va to'g'rilash, buning uchun avval o'zi turgan joy koordinatasini aniqlab olish, nishonlarni razvedka qilish, artilleriya olovini va aviatsiya zarbalarini chaqirish hamda boshqarish vazifalarini tezkorlik bilan bajarish imkoniyatini yaratadi.

Artilleriya olovini va aviatsiya zarbalarini chaqirish hamda ularni koorektirovka qilish vaqtlarida turgan joylarini tezkorlik bilan almashtirish va dushmanga iloji boricha yaqinlik qilish, turgan joyini zudlik bilan almashtirish imkonini beradi.

**Dushmanning muhim obektlarini (shaxid mobillarni) izdan chiqarish** - maxsus va razvedka bo'linmalari "Baggi" avtomobillaridan iborat bo'lgan manyovrchan tankka qarshi guruh (MTQGr) tarkibida jangovar harakatlarni olib borib, dushman aviatsiyasi uchib kelish<sup>20</sup>gacha o'z mudofaa tuguniga qaytib kelish uchun kerakli bo'lgan vaqt hisobini inobatga olgan holda, mudofaa tugunidan 30-40 kmdan uzoq bo'lmagan dushman kuchlarining muhim obektlari yoki harakatlanayotgan kolonnalariga (shaxid mobillarga) tankka qarshi boshqariluvchi raketalar (TQBR) bilan to'satdan qisqa bosqinlarni amalga oshirish, shuningdek dan iborat bo'ladi.

Dushman kelishi extimoli bo'lgan yo'nalishlarga pistirmadan zarba berish - maxsus va razvedka bo'linmalari "Baggi" avtomobillardan iborat bo'lgan razvedka-zarba guruhi tarkibida dushman kelishi extimoli bo'lgan yo'nalishlarga tezkorlik bilan chiqish va pistirmani amalga oshirish xamda manevrni amalga oshiradi. [4].

**Razvedka-zarba guruhi** "Baggi" avtomobillarda pistirmani amalga oshirish hududidagi dushmanni yo'q qilish uchun tarkibida guruh qurollari, granatomyot, pulemyot va ognemyot (TQBR) raschyotlari hamda merganlardan tashkil topishi mumkin bo'lgan o't ochib shikast yetkazish kichik guruhi, minali-portlovchi to'siqlarni o'rnatish uchun bo'linmaning minalash kichik guruhi, o't ochib bo'linmaga madad berish zarurati tug'ilganda pistirma joyiga tezda chiqib borishning imkonini beradigan hududda (biroq pistirma amalga oshiriladigan joyga 10 km dan yaqin bo'lmagan) yashirincha joylashadi hamda vazifani bajargandan so'ng bo'linmaning yig'in hududiga chekinishini ta'minlaydigan shtatdagi jangovar texnikadan iborat zirhli guruh, harakatlanib kelayotgan dushmanni o'z vaqtida fosh qilish va pistirma amalga oshirilayotgan hududda uzluksiz aylana kuzatuvni tashkillashtirish uchun tarkibi ikki-



to'rt nafar harbiy xizmatchidan iborat bo'lgan kuzatuv postlari (kuzatuvchilar) tuziladi.

**Kolonnalar harakati xavfsizligini ta'minlash – bo'linmalarning kolonnalarda harakatlanish davomida tarkibida “Baggi” avtomobillari bo'lgan bo'linmalar safar qo'riqlovi** tarkibida harakatlanishi mumkin.

Safar qo'riqlovi asosiy kuchlar kolonnasining qarshilikka uchramagan holda harakatlanishini ta'minlashi, dushman qo'poruvchi-razvedka va jangovar guruhlarining (otryadlarining) ularga qo'qqisdan hujum uyushtirishiga yo'l qo'ymasligi, shuningdek, hujum uyushtirilgan taqdirda, uni uyushqoqlik bilan qaytarish hamda reja asosida kolonnani hujum (qo'poruvchilik) uyushtirilgan hududdan olib chiqishni amalga oshirishi kerak.

**Safar qo'riqlovining jangovar tartibdagi tuzilishi, odatda quyidagilardan tashkil topadi:**

dozor kichik guruhi;

bosh dozor (kuchaytirilgan jangovar guruh tarkibida);

madad guruhi (o't ochib madad berish guruhidan tashkil topgan);

bevosita asosiy kuchlarni qo'riqlash bo'linmasi, shuningdek, jangovar guruhning kichik guruhi tarkibidagi front orti dozori (dozor kichik guruhi).

Vaziyat sharoitlari hamda joyning xususiyatidan kelib chiqqan holda harakat yo'nalishining o'ng va chap tomonlariga yon tomon dozor kichik guruhlarini yuboriladi.

Avtomobil kolonnalariga dushmanning qurollangan tuzilmalari tarkibidagi qo'poruvchi-razvedka va jangovar guruhlarini (otryadlari) tomonidan qo'poruvchilik va hujum harakatlarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratuvchi **eng murakkab tuzilishga ega joy uchastkalariga** (dara, dovon, sirpanchiq joylar (aylanma yoki ilon izi yo'l), yashil o'tloqlar va boshqalar) tarkibida “Baggi” avtomobillari bo'lgan bo'linmalartomonidan **qo'riqlash zastavalari** qo'yilishi mumkin.[4].

**Razvedka qidiruv, razvedka zarba va reyding'ol harakatlarini olib borish -** “Baggi” avtomobillar maxsus va razvedka bo'linmalar tomonidan razvedka qidiruv harakatlari davomida “Baggi” avtomobillaro'tishi imkoni bor hududlarni tezkorlik bilan hamda qisqa vaqt ichida o'rganish imkoniyatini beradi, shuningdek ushbu bo'linmalar “Baggi” avtomobillarida dushmanning razvedka diversion va noqonuniy qurollangan guruhlarini o'z vaqtida aniqlash va yakson etish, chegaraning zaif hududlarini aniqlash va noqonuniy qurollangan guruhlarining yirik bo'linmalarini va tayyorgarlik bazalarini aniqlash uchun davlat chegarasi bo'ylab va davlat hududi ichida uzluksiz razvedkani olib borish, zarur hollarda qo'qqisdan zarbalar yetkazish va dushmanni yakson etish vazifalarini bajarishi mumkin.

Shuningdek, “Baggi” avtomobillardan jang maydonida **yaradorlarni evakuatsiya qilish** (sanitar) uchun foydalanish mumkin.

“Baggi” avtomobillaridan jangovar harakatlarda samarali foydalanish ularning Qurolli Kuchlarni qo'llash usul va uslublariga to'liq integratsiya qilish bilan erishiladi.





Qo'shirlarni "Baggi" avtomobillari bilan butlanishi yuklatilgan jangovar vazifalarni bajarishda manyovrchanlik va tezkorlikni oshiradi va jang maydonida jangovar va ta'minot tizimini takomillashtirishda samarali natijalarni beradi.

**AQSH maxsus operatsiyalar kuchlari bo'linmalarida "Baggi" avtomobillari toifalanishi.**

razvedka qiluvchi;

zarba beruvchi "Baggi" avtomobillari.

**Razvedka qiluvchi "Baggi" avtomobillari** – dushman, bo'lg'usi harakatlari olib boradigan hududdagi joy, ob-havo haqida, dushman qurol-aslahasi, o'q-dorilari va harbiy texnikasi hamda qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni qo'lga kiritish maqsadida vaziyatning har qanday sharoitlarida uzluksiz ravishda tashkillashtiriladi va olib boriladi.

**Zarba beruvchi "Baggi" avtomobillari** – avtomobil bazasiga o'rnatilgan guruh qurollari, pulemyot (tankka qarshi granatomyot va boshqariluvchi raketa) larini keng qo'llagan holda jang maydoniga, dushman ort tomoniga tezkorlik bilan chiqib borish, dushmanga kuchli talafot yetkazish (yakson qilish), dushman kuchlarini ta'qib qilish hamda uning ehtimoliy harakat yo'llarida pistirma qo'yish, xavfli hudud va yo'nalishlarga qurol-aslaha, o'q-dori va boshqa harbiy texnik anjomlarni tezkorlik bilan yetkazish va ularni shu hududdan olib chiqishni tez sur'atda bajarish uchun mo'ljallangan.[3].

**Zamonaviy harbiy harakatlarda AQSH maxsus operatsiyalar kuchlarini yengil taktik avtomobillarni qo'llash tajribalari.**

"Baggi" turdagi yengil taktik avtomobil ilk bor 1991 yil Fors ko'rfazida bo'lib o'tgan "Cho'l bo'roni" operatsiyasida AQSH MOK bo'linmalarini belgilangan vazifalarni tezkorlik bilan bajarish maqsadida qo'llanilgan. "Cho'l bo'roni" operatsiyasi paytida Amerika qo'shinlari, Buyuk Britaniyaning Maxsus Kuchlari tomonidan yengil taktik avtomobillari faol ishlatilgan va o'z samarasini bergan. Ushbu yengil taktik avtomobillari hozirgi vaqtda keng ko'lamda ishlab chiqarilib kelinmoqda.

1992-1993 yil Samoli davlatida bo'lib o'tgan fuqorolik urushida AQSH Maxsus bo'linmalari tomonidan BMTning gumanitar yordam kolonnalari qo'riqlovini amalga oshirishda yengil taktik avtomobil yordamida ta'minlagan va biron marta ham yo'qotishlar bo'lmagan.

2002-yil Afg'onistonning Shaxi-Kot vodiysida bo'lib o'tgan "**Anakonda**" operatsiyasida AQSH MOK bo'linmalari tomonidan chekinayotgan Tolibon tuzilmalariga artilleriya olovini koorektirovka qilish va aviatsiya zarbalarini yo'naltirish maqsadida keng va samarali qo'llanilgan. Kichik bo'linmalar tarkibida aviatsiya yo'naltiruvchisi va artilleriya olovlarini koorektirovka qiluvchi mutaxassislar bo'lgan va belgilangan hududga shiddat bilan borib vazifalarni bajargan.

2010 yil Iroq chegarasidagi Mosul shahrida IGIL noqonuniy qurollangan tuzilmalariga qarshi AQSH MOK bo'linmalari dushman kichik guruhlarini joylashgan



hududlarini qidirib topish va ularga qarshi jangovar operatsiyalar o'tkazishda keng qo'llanilgan.

Ushbu yengil taktik avtomobillar xarakterli xususiyati - bu barcha ekipaj odamlarni, shuningdek, o't ochuvchi o'qchi barcha tomonga burilish, shaxsiy tarkibni tashish imkoniyati mavjud bo'lgan.

Ushbu vosita hozirgi paytda AQSh qurolli kuchlari, NATO bloki va Markaziy Amerika va Yaqin Sharqning ba'zi mamlakatlaridagi qurolli kuchlarida mavjud.

Hozirgi kunga kelib Chenout kompaniyasi harbiy yengil taktik avtomobil ishlab chiqarishda yetakchi o'rinni egallaydi. AQSh Qurolli kuchlarida esa "Teledayn" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan LFV (4x4) transport vositasilari maxsus avtomobil sifatida keng qo'llaniladi. [4].

**Xulosa qilib aytganda,** Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida olib borilayotgan jangovar harakatlar mobaynida AQSH maxsus operatsiyalar kuchlari bo'linmalari tomonidan olib borilayotgan maxsus operatsiyalar taxlili shuni ko'rsatmoqdaki yengil taktik avtomobil texnikalaridan foydalanish maxsus bo'linmalarni jangovar imkoniyatlari bir necha marotabaga oshirib yuklatilgan maxsus vazifalarni muvofaqiyatli bajarilishlarini ta'minlab kelmoqda. Ushbu yengil taktik avtomobil texnikalari qo'shinlarni marsh uyushtirishi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi mobaynida safar qo'riqlorida qo'llanilishidan tashqari, razvedka qidiruv, razvedka zarba va reydlar ishgor harakatlari vaqtida bo'linmalarga yuklatilgan maxsus vazifalarni samarali bajarish maqsadida keng mashtabda qo'llanilmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOT BA MANBALAR:

1. 2 sonli «Зарубежное военное обозрение» jurnali 2018 y.

Internet saytlari:

2. [http://spec-naz.org/articles/;](http://spec-naz.org/articles/)
3. [www.us-army.com;](http://www.us-army.com;)
4. [www.speshial units.uk.](http://www.speshial units.uk)